



## SPECIFIC ISSUES OF SYSTEMATIZING THE GENERAL THEORETICAL PROBLEMS OF SUFISM IN THE VIEWS OF SADIDDIN XAMAVIY

*Alisher Shavkatovich Rajabov*

*Independent Researcher at Bukhara State Pedagogical Institute  
Bukhara, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Sa'diddin Hamawi, Aziziddin Nasafi, Wahdat al-wujud, Kubrawiyya, Al-Misbah fi't-Tasawwuf, Kitab al-Mahbub, Sajanjul al-arwah, Najib Mayil Heravi, "mukhtass", "muttasil", alam al-mithal, ilm al-huruf.

**Received:** 13.05.26

**Accepted:** 14.05.26

**Published:** 15.05.26

**Abstract:** This article analyzes information pertaining to the specific issues of systematizing the general theoretical problems of Sufism in the views of Sa'diddin Hamawi, one of the major theoretical representatives of medieval Sufi philosophy who made a worthy contribution to the development of the "Wahdat al-wujud" doctrine. The article also presents analyses dedicated to the mystic's understanding of Sufism and the issues contained within its scope, such as wilayah (sainthood), nubuwwah (prophethood), the imaginal realm (alam al-mithal), and the science of letters (ilm al-huruf), with extensive space given to philosophical interpretations.

## SA'DIDDIN HAMAVIY QARASHLARIDA TASAVVUFNING UMUMNAZARIY MUAMMOLARINI TIZIMLASH TIRISHNING O'ZIGA XOS MASALALARI

*Alisher Shavkatovich Rajabov*

*Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi  
Buxoro, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Sa'diddin Hamaviy, Aziziddin Nasafiy, Vahdat ul-vujud, Kubraviya, Al-Misboh fit-tasavvuf, Kitob al-Mahbub, Sajanjul al-arvoh, Najib Moyil Hiraviy, "muxtassa", "mutassil", Olam al-misol, ilmi xuruf.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'rta asrlar yashagan tasavvuf falsafasining yirik nazariyotchi vakillaridan biri bo'lgan, "Vahdat ul-vujud" ta'limotining rivojiga munosib hissa qo'shgan Sa'diddin Hamaviyning qarashlarida tasavvufning umumnazariy muammolarini tizimlashtirishning o'ziga xos masalalari oid ma'lumotlar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mutasavvifning

tasavvufni tushunishi, uning mazmunidan o‘rin olgan valoyat, nubuvvat, olami misol, xuruf ilmi va boshqa masalalarga bag‘ishlangan tahlillar keltirilgan hamda falsafiy izohlarga keng o‘rin berilgan.

## СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СИСТЕМАТИЗАЦИИ ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ СУФИЗМА ВО ВЗГЛЯДАХ СААДИДДИН ХАМАВИЙ

*Алишер Шавкатович Раджабов*

*Независимый соискатель*

*Бухарский государственный педагогический институт*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Саадиддин Хамавий, Азизиддин Насафий, Вахдат аль-вуджуд, Кубравия, Al-Misbah fi‘t-Tasawwuf, Kitab al-Mahbub, Sajanjul al-Argwah, Наджиб Моиль Хиравий, «мухтасса», «мутгасил», Алам аль-мисаль, Ильм аль-хуруф.

**Аннотация:** В данной статье анализируются сведения, связанные со специфическими вопросами систематизации общетеоретических проблем суфизма во взглядах Саадиддин Хамавий — одного из крупнейших теоретиков средневековой суфийской философии, внесшего значительный вклад в развитие учения Вахдат аль-вуджуд («единство бытия»). Также в статье представлены анализы, посвящённые пониманию суфизма мыслителем, а также таким понятиям, входящим в его содержание, как святость (валайат), пророчество (нубувват), мир образов (алам аль-мисаль), наука о буквах (ильм аль-хуруф) и другим вопросам; особое внимание уделено философским интерпретациям.

**Kirish.** Sa‘diddin Hamaviyning tasavvufiy tizimi - bu klassik irfonning eng murakkab va nazariy jihatdan eng yuksak nuqtalaridan biridir. Uning qarashlarini akademik va tasavvufiy terminologiya asosida quyidagi fundamental yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Mutasavvifning tasavvufiy tizimini falsafiy kategoriyalar - substansiya, aksidensiya, forma, mazmun va ierarxiya - kesimida tahlil qilish uning naqadar izchil va tizimli mutafakkir bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning ta‘limotida ilohiy mazmun va mantiqiy forma o‘zaro dialektik aloqada namoyon bo‘ladi. Sa‘diddin Hamaviyning tasavvufiy qarashlari - bu shunchaki nazariy bilimlar emas, balki matematik aniqlik, geometrik ramzlar va metafizik nurlarning murakkab sintezidir. Sa‘diddin Hamaviy tasavvufiy

qarashlarida asosiy umumnazariy muammolari sifatida valoyat, nubuvvat, ranglar va nurlar metafizikasi, olami misol, xuruf ilmi va boshqa masalalarini tilga olgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar Sa'diddin Hamaviyning "Sakinat us-solihiyin fi ma'rifati qavoidil-yaqiyin", "Mahbub ul-muhibiyin va matlab ul-vosiliyn" (Muhiblarning mahbubi va vasl istovchilarning matlabi), "Al-misbah fit-tasavvuf", "Bahr ul-maoniy"(Ma'nolar ummoni), "Risola dar tasavvuf"(Tasavvuf haqida risola) kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va hermenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Hamaviy ta'limotida "Valoyat" shunchaki diniy maqom emas, balki borliqning doimiy harakatini va ilohiy nurning olamga taralishini ta'minlovchi energetik o'zakdir. Sa'diddin Hamaviyning ta'kidlashicha, nubuvvat - bu ilohiy kalomning tashqi shakli (surati) va muayyan tarixiy davrda yashagan qavm uchun belgilangan qonunlar (shariat) majmuidir. Viloyat esa o'sha qonuniyatlarning ichki ruhiy mazmuni bo'lib, u vaqt va makon bilan chegaralanmaydi. Mutasavvif nubuvvatni "inqilo" (tugash xususiyatiga ega), valoyatni esa "istimror" (uzluksizlik) kategoriyalari bilan tavsiflagan. Sa'diddin Hamaviyning valoyat va xatm (muhrlanish) konsepsiyasi shunchaki tasavvufiy holat emas, balki olamning ontologik tuzilishini tushuntiruvchi falsafiy kategoriyadir. Hamaviy nubuvvat va valoyat munosabatini zohir (surat) va botin (ma'no) kategoriyalari orqali ifodalagan. Uning fikricha, nubuvvat - ilohiy qonuniyatlarning tarixiy va ijtimoiy shakli bo'lsa, valoyat - o'sha qonuniyatlarning doimiy yashab turuvchi ma'naviy substansiyasidir. Hamaviy o'zining "Al-misboh fit-tasavvuf" asarida nubuvvatni "tugaydigan vaqt", valoyatni esa "abadiy davom etuvchi nur" sifatida ta'riflagan. Hamaviyning eng muhim ilmiy xulosasi - payg'ambarlik zamonini tugaganidan so'ng, olamning ma'naviy boshqaruvi va ilohiy fayzning yetib kelishi faqat valiy orqali amalga oshirishidir. Bu yerda valiy - ilohiy va moddiy olam o'rtasidagi markaziy nuqta (aksis) vazifasini o'taydi. Najib Moyil Hiraviyning ta'kidlashicha, Hamaviy uchun viloyat - borliqning "energetik tizimi"dir. Agar bu tizim (muhr) bo'lmasa, olam ontologik jihatdan parchalanib ketadi.

Sayyid Jaloliddin Oshtiyoniy Hamaviyning asarlarini alohida kitob holida nashr etmagan bo'lsa-da, o'zining "Sharhi muqaddimai Qaysariy bar Fusus ul-hikam" va boshqa nazariy ishlarida Hamaviyning "viloyat" konsepsiyasini falsafiy jihatdan tahlil qilgan. Uning tahlillari Hamaviy matnlarining mantiqiy mag'zini ochib berishga qaratilgan. Sayyid Jaloliddin Oshtiyoniy Hamaviyning "valoyat" konsepsiyasini falsafiy dinamizm kategoriyasi bilan bog'laydi. Valiylik - bu shunchaki daraja emas, balki ilohiy irodaning voqelikda zuhur etish mexanizmidir. Shuningdek,

Sayyid Jaloliddin Oshtioniy Hamaviyni “Valoyat falsafasining me’mori” deb ataydi. Uning fikricha, Hamaviy Ibn Arabiyning abstrakt g‘oyalarini Eron ishroqiy an‘analari bilan sintez qilib, valoyatni “ilohiy nurning olamdagi doimiy oqimi” sifatida tizimlashtirgan. Hamaviy valoyatni borliqning ierarxik pog‘onalari (lohut, jabarut, malakut, mulk) bilan bog‘lab tahlil qiladi. Uning “Kitob al-Mahbub” asarida valoyat - solikni ushbu ierarxiya bo‘ylab yuqoriga ko‘taruvchi “ma’naviy pog‘ona” sifatida tasvirlanadi. Muallif Valoyatni “ilohiy ishqning harakatdagi shakli” deb ataydi. Bu yerda ierarxiya - surat, shakl, ishq esa - harakatlantiruvchi mazmundir. Sa’iddin Hamaviy “Kitob al-Mahbub” asarida nubuvvatni “muxtassa”(muayyan shaxslarga va muayyan zamonga xoslangan) va valoyatni(ilohiy fayzning ilk yaralishdan qiyomatgacha uzilmaydigan zanjiri) “mutassil” tushunchalari bilan izohlagan. Mazkur asarda alloma valiyning olamdagi ontologik o‘rnini - borliqni tutib turuvchi “qutb” (markaziy o‘q) sifatida asoslagan. Uning fikricha, Nubuvvat quyoshga o‘xshasa, valoyat uning nuridir; quyosh botsa-da (payg‘ambarlik tugasa-da), uning nuri olamni yoritishda davom etadi (valiylar orqali). Valiy - ilohiy irodaning voqelikdagi doimiy vakilidir. Hamaviy ikkala asarida ham “Xatm ul-valoyat” (Valoyat muhri) g‘oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, Nubuvvat instituti Muhammad (s.a.v.) bilan yakunlangan bo‘lsa-da, olamning ma’naviy "boshqaruv mexanizmi" Valoyat orqali davom etadi. Agar yer yuzida bir lahza bo‘lsa-da “Valiy” (Qutb) qolmasa, olam ontologik muvozanatini yo‘qotadi va parchalanadi. Najib Moyil Hiraviy ushbu ikki asarni qiyoslab, Hamaviyning valoyat nazariyasini “borliqning ichki qomusi” deb ataydi. Xulosa qilib aytganda eronlik tadqiqotchilar J. Oshtioniy va N. M. Hiraviylarning tahlillari Sa’iddin Hamaviyning “Valoyat” konsepsiyasi shunchaki tasavvufiy maqom emas, balki borliqning ontologik barqarorligini ta’minlovchi ilohiy energiya va ma’naviy boshqaruv mexanizmi ekanini asoslaydi. Ushbu mexanizm payg‘ambarlikning tarixiy yakunidan so‘ng, ma’naviy vorislik va ilohiy fayzning izchilligini saqlab turuvchi yagona ontologik kafolat sifatida namoyon bo‘ladi.

Sa’iddin Hamaviy ta’limotida “Olam misol” (Timsollar olami) - bu shunchaki nazariy tushuncha emas, balki ruhiy safar (sayri suluk) amalga oshiriladigan aniq metafizik makondir. Hamaviy ushbu olamni moddiy jismlar olami (nosut) va mujarrad ruhlar dunyosi (lohut) o‘rtasidagi “ma’naviy barzax” sifatida tavsiflaydi. Hamaviyning falsafiy tizimida “Olam misol” ikki ziddiyatli qutbni birlashtiruvchi vositachidir. Bu olamda ma’nolar “surat” (shakl) kasb etadi, jismlar esa o‘zlarining moddiy og‘irligini yo‘qotib, “latif” (nozik) holatga o‘tadi. Hamaviy “Al-Misboh fit-tasavvuf” asarida ta’kidlashicha, inson kashf va shuhud (intuitiv bilish) holatida aynan shu olamga kiradi. U yerda solikning ruhiy holatlari aniq vizual timsollar, ranglar va geometrik

shakllar qiyofasida namoyon bo'ladi . Hamaviy ruhiy safarni xaritalashtirgan ilk mutafakkirlardandir. Uning topografiyasi quyidagi sirlarni o'z ichiga oladi:

- Hamaviy ruhiy safardagi maqomlarni (maqomot) "ma'naviy shaharlar" yoki "doiralar" sifatida tasvirlash mumkin. Bu yerda har bir maqom o'ziga xos "jo'g'rofiy" xususiyatga ega.

- Timsollar olami solikning ichki dunyosini aks ettiruvchi ko'zgudir. Agar solikning nafsi poklangan bo'lsa, u go'zal va nurli timsollarni, agar poklanmagan bo'lsa, zulmatli va vahimali suratlarni ko'radi .

Hamaviy "Olami misol" makonini ranglar xaritasi bilan boyitgan. Hamaviyning "Olami misol" haqidagi tasavvufiy qarashlari tadqiqotchi Nasrulloh Purjavodiy tomonidan alohida tahlil qilingan. Qora, ko'k, qizil, sariq, oq va yashil nurlar solikning "Olami misol" xaritasida qaysi nuqtada turganini anglatuvchi belgilardir. Hamaviy uchun yashil rang timsollar olamining eng yuksak nuqtasi - Arsh ostidagi "yashil zumrad" maqomiga ishora qiladi . Hamaviyning eng katta siri - u "Olami misol"ni matematik va geometrik tilda ifodalaganidadir. U chizgan doiralar borliqning ichki tuzilishini kodlagan. Har bir aylana ruhiy safarning bir bosqichidir. Solik markaziy nuqtaga yaqinlashgani sayin Timsollar olamining murakkab shakllaridan Mutlaq Vahdatga (Birlikka) o'tadi . Sa'diddin Hamaviyning "Zairja" (geometrik doiralar) tizimi tasavvuf tarixida fenomenal hodisa bo'lib, u abstrakt metafizik voqelikni grafik tizim va matematik izchillikka ko'chirishga urinishdir. Hamaviy uchun koinot xaotik emas, balki muayyan strukturaga ega. U chizgan doiralar - borliqning "irsiy xaritasi"dir. Har bir doira (doira) borliqning bir qatlamini ifodalaydi. Masalan, eng tashqi doira - Ajzom (moddiy jismlar), ichki doiralar esa - Arvoh (ruhlar), Nufus (nafslar) va nihoyat markaziy nuqta - Zot (Mutlaq Haqiqat)dir. Bu yerda doiralar solikka "qaerdaman?" va "qaerga ketyapman?" degan savollarga vizual javob beradi. Bu - ilohiy borliqning geometrik ierarxiyasidir . Hamaviyning doiralari statik (turg'un) emas. Ular solikning ruhiy traektoriyasini belgilaydi. Aylananing cheti - hayvonlik va tarqoqlik ramzi, markaz esa - Birlik (Vahdat). Solik doiraning bir bosqichidan ichki bosqichiga o'tgani sayin uning dunyoqarashi murakkab shakllardan sodda va mutlaq haqiqatga tomon zichlashib boradi. Har bir aylana oralig'idagi masofa solikning bosib o'tishi kerak bo'lgan riyozat bosqichidir. Bu yerda geometriya ma'naviy masofani o'lchash birligiga aylanadi . Sa'diddin Hamaviy doiralar ichiga harf va raqamlarni joylashtirgan. Bu shunchaki bezak emas. Mutasavvif "Zairja"ni ma'naviy algoritim sifatida ishlatgan. Muayyan harflarning doira ichidagi joylashuvi orqali u borliqdagi voqealarning sababini va ruhiy holatlarning yechimini hisoblab chiqargan. Eronlik olim Muhammad Taqiy Donishpajo'h ta'kidlaganidek, Hamaviyning bu chizmalari "aqliy mushohada"(ratsional) va "intuitiv kashf"(irratsional)ning sintezidir. Ya'ni, solik doiraga qarab,

o‘z ruhiyatidagi murakkab muammoni matematik aniqlikda ko‘ra oladi . Timsollar olami (Olami misol) - rang-barang, shakl-shamoyilga boy olamdirdir. Ammo Hamaviyning doiralari bu murakkablikni bitta markaziy nuqtaga – “Nuqta”ga (Mutlaq Birlikka) qaytaradi. Alloma “Zairja” orqali olam qanchalik murakkab ko‘rinmasin, uning negizida bitta sodda haqiqat yotadi va unga geometrik izchillik bilan yetib borish mumkin demoqchi bo‘lgan.

Sa‘diddin Hamaviy tasavvufiy qarashlarida nur va ranglar metafizikasi shunchaki ramziy bezak emas, balki inson ruhiy olamining holatini aniqlovchi “qalb ko‘zgidagi ranglarning raqsi solikning ma‘naviy kamolot bekatlaridan xabar beruvchi ilohiy suratlar” tizimidir. U Kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro tomonidan poydevori qo‘yilgan “rangli nurlar” (anvor va alvon) ta‘limotini yuksak akademik va falsafiy darajaga ko‘targan. Sa‘diddin Hamaviy ta‘limotidagi ranglar va nurlar metafizikasi - bu qalb ko‘zgidagi ilohiy tajalliyotlarning badiiy xaritasidir. Mutasavvif tilidagi “ranglar raqsi” solikning ruhiy holatini aniqlovchi botiniy mezon vazifasini o‘taydi. Hamaviy ta‘limotida inson vujudida yettita nozik ma‘naviy a‘zo (latoifa) mavjud bo‘lib, ularning har biri muayyan bir payg‘ambarning ma‘naviy haqiqati va aniq bir rang bilan bog‘lanadi. Solik riyozat va zikr jarayonida o‘z ichki olamida turli ranglarni ko‘ra boshlaydi. Hamaviy uchun bu ranglar ruhning qaysi qatlami poklanayotganini ko‘rsatuvchi indikatoridir. Bu yerda rang — mazmunning (ma‘naviy holatning) tashqi formasi sifatida namoyon bo‘ladi . Hamaviy “Al-Misboh fit-tasavvuf” asarida ranglarning ierarxik tartibini quyidagicha tizimlashtirgan. Asarda ko‘k nur nafsning dastlabki poklanish bosqichi, hali zulmat ta‘siri mavjudligini, sariq nur qalbning nurlanishi va ma‘naviy ishqning boshlanishini, qizil nur ma‘rifat va ilohiy sirlarning ochilishini, yashil nur bu rang qalbning mutlaq sokinlik va valiylik (valoyat) maqomiga yetganidan dalolat berishini, qora nur (nuri siyoh) bu eng murakkab kategoriya bo‘lib, “Ilohiy zot”ning cheksizligi va idrok qilib bo‘lmas maqomiga ishora ekanligini, bu yerda “qoralik” - nurning yo‘qligi emas, balki nurning haddan tashqari ko‘pligidan ko‘zning qamashishini ifodalaydi. Nasrulloh Purjavodiy ta‘kidlashicha, Hamaviy nurlarni “olami misol” (timsollar olami) bilan bog‘laydi. Solik ko‘rayotgan ranglar shunchaki xayol emas, balki uning ma‘naviy “men”ining timsollar olamidagi tajalliysidir .

Sa‘diddin Hamaviyning “Ilmi huruf” (harflar ilmi) va “Zairja” (geometrik doiralari) haqidagi qarashlari tasavvuf tarixidagi eng murakkab va matematik izchillikka ega tizimlardan biridir. Mutafakkir uchun olam - bu ilohiy “Nuqta”dan boshlangan va muayyan geometrik qonuniyatlar asosida kengaygan axborot matnidir. Hamaviy falsafasida arab alifbosining 28 ta harf - bu shunchaki belgilar emas, balki olam degan ulug‘ imoratning ma‘naviy g‘ishtlari, ilohiy nafasning turli ohanglaridir. Nuqta va Alifning dialektikasi Hamaviyning ta‘kidlashicha, butun borliq Mutlaq

Zot ramzi bo'lgan "nuqta"dan boshlangan. Nuqtaning harakati natijasida "Alif" (zuhur/birinchi shakl) hosil bo'lgan. Qolgan barcha harflar va ular ifodalagan moddiy jismlar aynan shu Alifning turli konfiguratsiyalaridir. Har bir harf muayyan son qiymatiga (abjad), elementga (tuproq, suv, havo, o't) va ilohiy sifatga ega. Bu degani, olamdagi har bir mavjudot muayyan harflar va sonlar yig'indisidan iborat bo'lgan ilohiy qalamning kashtasidir. Hamaviy ilohiy haqiqatlarni vizuallashtirish uchun "Zairja" deb atalgan murakkab geometrik chizmalar (doiralari) tizimini yaratgan. Zairja - bu borliqning ierarxik tuzilishini ifodalovchi xarita. Unda doira markazi Mutlaq Birlik (Vahdat) bo'lsa, atrofdagi aylanalar Timsollar olami, ruhlar va jismlar olamini anglatadi. Hamaviy ushbu doiralarni "ma'naviy algoritmi" sifatida ishlatgan. Harflarni doira ichida ma'lum tartibda aylantirish va hisoblash orqali u borliqning sirlarini, kelajakdagi voqealarni yoki solikning ma'naviy darajasini hisoblab chiqargan. Buni zamonaviy tilda ma'naviy modellashtirish deb atash mumkin. Hiraviy Hamaviyning "Ilmi huruf" borasidagi mehnatini muqaddas matematika deb baholaydi. Uning ta'kidlashicha, Hamaviy harflarni borliqning arxitektonikasi sifatida ko'rgan. Donishpajo'h esa, Hamaviyning zairjalarini "aqliy va kashfiy bilimlarning grafik sintezi" deb ta'riflagan. Nasrulloh Purjavodiyning bo'yicha esa Hamaviyning geometrik modellarini "botiniy metafizika" deb ataydi va uning yordamida tasavvuf nazariyasi qat'iy mantiqiy shakl kasb etganini isbotlaydi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirib o'tilgan argumentlar va tahlillar asosida quyidagi xulosalarni ta'kidlash o'rinli deb hisoblashga to'liq asoslar mavjud:

- Sa'diddin Hamaviy tasavvufi - bu simbolik-matematik irfon tizimidir. Unda ilohiy ishq - harakatlantiruvchi kuch, harflar va raqamlar - borliqning substansiyasi, geometrik doiralari esa kamolot yo'lining xaritasi vazifasini o'taydi.

- Sa'diddin Hamaviy talqinidagi "Olam al-misol" - bu ruhiy kamolotning tizimli xaritasidir. Ushbu xaritada har bir timsol, rang va geometrik shakl solikning ma'naviy darajasini belgilovchi «koordinata» vazifasini o'taydi. Bu esa tasavvufiy tajribani shunchaki abstrakt tuyg'u emas, balki aniq tizimli metafizika sifatida talqin qilish imkonini beradi.

- Hamaviy doiralari orqali tasavvufni ilmiylashtirgan. U inson ruhiyati va koinot strukturasi "xarita" ko'rinishiga keltirib, ma'naviy safarni "ko'r-ko'rona intilish"dan "aniq reja asosidagi harakat"ga aylantirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. حموي، سعدالدين. المصباح في التصوف / با تصحيح و مقدمه نجيب مايل هروي. - تهران: انتشارات مولی. ۱۳۶۲. - ۴۴-۴۶. ص. (Hamaviy, Sa'diddin. Al-Misbah fit-tasavvuf / Najib Moyil Hiraviy tahriri va muqaddimasi ostida. - Tehron: Intishoroti Mavlo, 1362/1983. - 44-46-betlar.)

- حموی، سعدالدین. المصباح فی التصوف / یا تصحیح و مقدمه نجیب مایل هروی. - تهران: انتشارات مولی، ۱۳۶۲. ص. ۴۴-۴۸. - ۱۳۶۲.
۳. هروی، نجیب مایل. مقدمه بر المصباح فی التصوف. - تهران، ۱۳۶۲. ص. ۲۲-۲۵.
۴. آشتیانی، جلال‌الدین. شرح مقدمه قیصری بر فصوص الحکم. - تهران: انتشارات امیرکبیر، ۱۳۷۰. ص. ۶۳۲-۶۳۸.
- حموی، سعدالدین. کتاب‌المحبوب / به تصحیح نجیب مایل هروی. - مشهد: آستان قدس رضوی، ۱۳۶۵. Qarang: ص. ۱۱۲. -
- حموی، سعدالدین. کتاب‌المحبوب / به تصحیح نجیب مایل هروی. - مشهد: آستان قدس رضوی، ۱۳۶۵. Qarang: ص. ۸۲-۸۵. - (Hamaviy, Sa'diddin. Kitob al-Mahbub / Najib Moyil Hiraviy tahriri ostida. - Mashhad: Ostoni Qudsi Rizviy, 1365/1986. - 82-85-betlar.)
- هروی، نجیب مایل. در شبستان عرفان (مجموعه مقالات در زمینه متن‌شناسی و عرفان). - تهران: گفتار، ۱۳۶۹. - ۱۱۵-۱۱۸. - (Hiraviy, N. M. Irfon shabistonida (Matnshunoslik va irfon sohasidagi maqolalar to'plami). - Tehron: Gofitor, 1369/1990. - 115-118-betlar.)
- آشتیانی، جلال‌الدین. شرح مقدمه قیصری بر فصوص الحکم. - تهران: انتشارات امیرکبیر، ۱۳۷۰. Qarang: ص. ۶۳۲-۶۳۵. - (Oshtiyoniy, Jaloliddin. Qaysariyning «Fusus ul-hikam»ga yozgan muqaddimasiga sharh. - Tehron: Amir Kabir nashriyoti, 1370/1991. - 632-635-betlar.); هروی، نجیب مایل. مقدمه بر (Hiraviy, Najib Moyil. «Al-Misboh fit-tasavvuf» asariga muqaddima. - Tehron: Mavlo nashriyoti, 1362/1983. - 35-40-betlar.)
- حموی، سعدالدین. المصباح فی التصوف / یا تصحیح و مقدمه نجیب مایل هروی. - تهران: انتشارات مولی، ۱۳۶۲. Qarang: ص. ۸۸-۹۲. - (Hamaviy, Sa'diddin. Al-Misboh fit-tasavvuf / Najib Moyil Hiraviy tahriri va muqaddimasi ostida. - Tehron: Intishoroti Mavlo, 1362/1983. - 88-92-betlar.)
- هروی، نجیب مایل. در شبستان عرفان. - تهران: گفتار، ۱۳۶۹. Qarang: ص. ۱۲۴. - (Hiraviy, N. M. Irfon shabistonida. - Tehron: Gofitor, 1369/1990. - 124-bet.)
- پورجوادی، نصرالله. سلطان‌العارفین. - تهران: مرکز نشر دانشگاهی، ۱۳۶۴. Qarang: ص. ۱۰۵-۱۱۰. - (Purjavodiy, Nasrulloh. Sulton ul-orifin. - Tehron: Markazi nashri donishgohiy, 1364/1985. - 105-110-betlar.)
- دانش‌پژوه، محمدتقی. فهرست نسخه‌های خطی کتابخانه مرکزی دانشگاه تهران. - تهران، ۱۳۴۸. Qarang: ص. ۴۵۵. - ۸. - (Donishpajo'h, Muhammad Taqiy. Tehron universiteti markaziy kutubxonasi qo'lyozmalari ro'yxati. - Tehron, 1348/1969. - 8-jild. - 455-bet.)
- حموی، سعدالدین. المصباح فی التصوف / به تصحیح نجیب مایل هروی. - تهران: مولی، ۱۳۶۲. Qarang: ص. ۴۵۲. -
- دانش‌پژوه، محمدتقی. فهرست نسخه‌های خطی کتابخانه مرکزی دانشگاه تهران. - تهران، ۱۳۴۸. Qarang: ص. ۴۵۵-۴۶۰. - ۸.

پورجوادی، نصرالله. سلطان العارفين. - تهران، ۱۳۶۴. - ص. ۱۲۰-۱۲۵. Qarang:

حمویی، سعدالدین. المصباح فی التصوف / یا تصحیح و مقدمه نجیب مایل هروی. - تهران: انتشارات  
۴۵۵-۴۴۸. ص. ۱۳۶۲. مولی، (Hamaviy, Sa'diddin. Al-Misboh fit-tasavvuf / Najib Moyil Hiraviy  
tahriri va muqaddimasi ostida. - Tehron: Intishoroti Mavlo, 1362/1983. - 448-455-betlar.)

هروی، نجیب مایل. در شبستان عرفان (مجموعه مقالات در زمینه متن‌شناسی و عرفان). - تهران  
۲۱۰-۲۰۸. ص. ۱۳۶۹. گفتار، (Hiraviy, N. M. Irfon shabistonida. - Tehron: Goftor, 1369/1990. -  
208-210-betlar.)

حمویی، سعدالدین. المصباح فی التصوف / یا تصحیح و مقدمه نجیب مایل هروی. - تهران: انتشارات  
۴۶۵-۴۵۸. ص. ۱۳۶۲. مولی، (Hamaviy, Sa'diddin. Al-Misboh fit-tasavvuf / N. M. Hiraviy tahriri.  
- Tehron: Mavlo, 1362. - 458-465-betlar.)

دانش‌پژوه، محمدتقی. فهرست نسخه‌های خطی کتابخانه مرکزی دانشگاه تهران. - تهران، ۱۳۴۸. Qarang:  
۴۵۵. ص. ۸. ج. (Donishpajo'h, M. T. Tehron universiteti kutubxonasi qo'lyozmalari ro'yxati. -  
Tehron, 1348. - 8-jild. - 455-bet.)

دانش‌پژوه، محمدتقی. فهرست نسخه‌های خطی کتابخانه مرکزی دانشگاه تهران. - تهران، ۱۳۴۸. Qarang:  
۴۵۵. ص. ۸. ج. (Donishpajo'h, M. T. Tehron universiteti kutubxonasi qo'lyozmalari ro'yxati. -  
Tehron, 1348. - 8-jild. - 455-bet.)